O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG ‘I

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning bosqichli hamda yakuniy nazorat imtihonlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2020-2021-o‘quv yilida o‘quvchilarning bosqichli hamda yakuniy nazorat imtihonlarini tashkil etish va o‘tkazish maqsadida **buyuraman:**

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlari 2021-yil 25-mayda tugallanishi belgilab qo‘yilsin.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining davlat ta’lim standarti asosida egallashi lozim bo‘lgan malaka talablariga muvofiq bilimlarini sinovdan o‘tkazish uchun 5-8- va 10-sinflar uchun og‘zaki, yozma imtihon yoki test sinovlari shaklida bosqichli (sinfdan-sinfga ko‘chirish) nazorat, 9- va 11-sinflar uchun esa davlat attestatsiyasi shaklida yakuniy (bitirish) nazorat imtihonlari ilovaga muvofiq belgilangan fanlardan tashkil etilsin.

3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari 9- va 11-sinf o‘quvchilarining yakuniy nazorat imtihonlari 2021-yil 27-maydan 15-iyungacha amalga oshirilsin (“Jismoniy tarbiya” fani bundan mustasno).

4. Belgilab qo‘yilsinki, ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 5-8- va 10-sinflarida ixtisoslashtirilgan o‘quv fanidan Pedagogik kengash qarori bilan qo‘shimcha imtihon topshirish uchun imtihonlar muddati 3 kunga uzaytirilishi mumkin.

5. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 9-sinf o‘quvchilari uchun “Jismoniy tarbiya” fanidan yakuniy nazorat imtihonlari 2021-yil 1-8-may kunlari malakali tibbiyot xodimlarining nazorati ostida o‘tkazilsin (Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlar hamda skolioz bilan kasallangan bolalar uchun sanatoriy turidagi maktab-internatlar bundan mustasno).

6. Ko‘zi ojiz, zaif ko‘ruvchi va tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda bosqichli nazorat hamda yakuniy nazorat imtihonlari umumta’lim muassasalariga qo‘yilgan talablar asosida o‘tkazilsin (jismoniy tarbiya fani bundan mustasno).

7. Kar, zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining 9- va 11-sinflarida yakuniy nazorat imtihonlari “Ona tili va adabiyot” fanidan bayon va “Matematika” fanidan yozma nazorat ishi shaklida amalga oshirilsin.

8. Aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda faqat “Texnologiya” fani bo‘yicha yakuniy nazorat imtihonlari o‘tkazilsin hamda

imtihonlarni o'tkazish muddati maktabning Pedagogik kengashi tomonidan belgilansin.

9. Ta'lim sifati jarayonlarini muvofiqlashtirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va salohiyatini oshirish boshqarmasi (L.Xo'jaqulov), Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov), O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov), Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining bosqichli (sinfdan-sinfga ko'chirish) va yakuniy (bitirish) nazorat imtihonlariga puxta tayyorgarlik ko'rishlari uchun sharoitlar yaratish;

bosqichli va yakuniy nazorat imtihonlarini shaffof, adolatli, xolis o'tkazilishini ta'minlash;

bosqichli va yakuniy nazorat imtihonlarining o'z muddatlarida o'tkazilishini nazoratga olish;

bosqichli va yakuniy nazorat imtihonlarining natijalari, ularni o'tkazish yuzasidan taklif va mulohazalarni umumlashtirib, 2021-yilning 3-iyuliga qadar Respublika ta'lim markazi (Sh.Sattorov)ga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

10. Respublika ta'lim markazi (Sh.Sattorov)ga:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim beriladigan barcha tillarda yakuniy nazorat imtihonlari o'tkaziladigan fanlar bo'yicha, shuningdek, ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi, kar, zaif eshituvchi hamda aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun **namunaviy** yakuniy nazorat imtihon materiallarini tayyorlash;

2021-yil 1-aprelga qadar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni muvofiqlashtirish bo'limi (S.Butanov), Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi (L.Rustamova) bilan hamkorlikda yakuniy va bosqichli nazorat imtihon materiallarini vazirlikning rasmiy veb-sayti (uzedu.uz) va eduportal.uz axborot ta'lim portaliga joylashtirish;

aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning bitiruvchi sinflari o'quvchilari uchun "Texnologiya" fanidan yakuniy nazorat imtihonini o'tkazish uchun tegishli tavsiya va mezonlar ishlab chiqish;

umumta'lim muassasalarida 2020-2021-o'quv yilini yakunlash, bitiruv sinflarida yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotni 2021-yil 1-avgustgacha Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

11. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir **Sh.Shermatov**

Toshkent sh.,
2021-yil "3 -" mart,
55 -son

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirining
2021-yil 3 - mart dagi
55-sonli buyrug‘iga
ILOVA

Bosqichli va yakuniy nazorat imtihonlari o‘tkaziladigan fanlar ro‘yxati va imtihon o‘tkazish shakllari

Bosqichli nazorat	
Fanning nomi	Imtihon o‘tkazish shakli
5-sinf	
Matematika	yozma
Chet tili	og‘zaki
6-sinf	
Tarix	og‘zaki
Botanika	og‘zaki
7-sinf	
Ona tili va adabiyot	yozma (diktant)
O‘zbek tili / Rus tili*	og‘zaki
Informatika / Matematika / Chet tili*	amaliy/ yozma/ og‘zaki
8-sinf	
Chet tili	og‘zaki
Davlat va huquq asoslari	og‘zaki
Informatika / Matematika*	amaliy/ yozma
10-sinf	
Informatika va axborot texnologiyalari	amaliy
Tarix	og‘zaki
Kimyo/ Biologiya*	og‘zaki
Matematika/ Geografiya*	yozma/ og‘zaki
Yakuniy nazorat	
9-sinf uchun	
Ona tili va adabiyot	yozma (bayon)
O‘zbek tili / Rus tili	og‘zaki
Matematika	yozma
Biologiya	og‘zaki (laboratoriya ishlari bilan)
Tarix	og‘zaki
Jismoniy tarbiya	amaliy
Informatika / Chet tili*	amaliy/ og‘zaki
Yakuniy nazorat	
11-sinf uchun	
Ona tili va adabiyot	**yozma (insho)**
Matematika	**yozma**
Chet tili	**og‘zaki**

O'zbek tili / Rus tili	og'zaki
Kimyo/ biologiya*	og'zaki
Informatika/ fizika *	amaliy/ og'zaki

Izoh: 5-8-sinflarda bosqichli nazorat (sinfdan-sinfga ko'chirish imtihoni) ikkita, 10-sinfda uchta o'quv fanidan o'tkaziladi.

**7-11-sinfda tanlov (variativ) fanlaridan biri o'quvchilarning ixtiyoriy tanlovi asosida bosqichli nazorat va yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishidan bir oy oldin tanlanadi. Bu haqda har bir sinf uchun tanlangan o'quv fanidan bosqichli nazorat va yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish haqida umumiy o'rta ta'lim muassasasi Pedagogik kengashi qaror qabul qiladi;*

9-sinflar uchun Jismoniy tarbiya fanidan 1-8-may, Ona tili va adabiyot fanidan – 26-may, Matematika fanidan – 29-may kunlari bitiruv imtihonlari o'tkaziladi;

11-sinflar uchun Ona tili va adabiyot fanidan – 27-may, Matematika fanidan – 30-may kunlari bitiruv imtihonlari o'tkaziladi.